



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

DIZARTRIYALI BOLALARDA YOZMA NUTQ BUZILISHLARINI BARTARAF ETISHNING LOGOPEDIK USULLARI

Axmedova Zuhra Murzabekovna

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, professor

Axmatova Nasiba Bobir qizi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarining kelib chiqish sabablari, ularning neyropsixologik va psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek nutq faoliyatining shakllanish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada yozma nutq buzilishlarining asosiy ko'rinishlari – disgrafiya va disleksiya elementlari, tovush-harf munosabatlarining buzilishi, grafomotor ko'nikmalar etishmovchiligi kabi holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, dizartriya bolalarda yozma nutqni rivojlantirish va buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy logopedik yondashuvlar, artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish, nutqiy nafasni shakllantirish, grafomotor mashqlar, sensor integratsiya va multimodal ta'lim usullarining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Dizartriya, yozma nutq, disgrafiya, disleksiya, nutq motorikasi, fonematik eshituv, fonematik idrok, nutqiy nafas, grafomotor ko'nikmalar, logopedik korreksiya, multimodal yondashuv, sensor integratsiya, nutq buzilishlari, maxsus pedagogika, neyropsixologiya, artikulyatsion gimnastika.

ЛОГОПЕДИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ КОРРЕКЦИИ НАРУШЕНИЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ДИЗАРТРИЕЙ

Ахмедова Зухра Мурзабековна

Национальный педагогический университет Узбекистана, профессор

Ахматова Насиба Бобир кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана, магистрант

Аннотация

В данной статье анализируются причины нарушений письменной речи у детей с дизартрией, их нейropsychологические и психофизиологические характеристики, а также механизмы формирования речевой деятельности. Рассматриваются основные проявления нарушений письменной речи – элементы дисграфии и дислексии, нарушения звуко-буквенных соотношений и дефициты графомоторных навыков. Также научно обосновывается эффективность современных подходов к логопедической терапии, направленных на развитие письменной речи и устранение нарушений у детей с дизартрией, артикуляционной гимнастики, развития фонемного слуха, формирования речевого дыхания, графомоторных упражнений, сенсорной интеграции и мультимодальных образовательных методов.

Ключевые слова: Дизартрия, письменная речь, дисграфия, дислексия, речевые моторные навыки, фонемный слух, фонемное восприятие, речевое дыхание, графомоторные навыки, коррекция речи, мультимодальный подход, сенсорная интеграция, нарушения речи, специальная педагогика, нейropsychология, артикуляционная гимнастика.

SPEECH THERAPY METHODS FOR CORRECTING WRITTEN SPEECH DISORDERS IN CHILDREN WITH DYSARTHRIA

Akhmedova Zuhra Murzabekovna

National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

Akhmatova Nasiba Bobir qizi

National Pedagogical University of Uzbekistan, Master's student

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of written speech disorders in children with dysarthria, focusing on their neuropsychological and psychophysiological characteristics as well as the mechanisms of speech development. It examines how organic impairments of the articulatory apparatus innervation affect phonemic perception, speech breathing, voice production, and overall speech motor skills. Particular attention is given to the main manifestations of written speech disorders, including

elements of dysgraphia and dyslexia, impaired sound-letter correspondence, and insufficient development of graphomotor skills. The study also highlights modern speech therapy approaches aimed at correcting written speech disorders in children with dysarthria, such as articulatory exercises, development of phonemic hearing, formation of speech breathing, graphomotor training, sensory integration techniques, and multimodal learning strategies.

Keywords: dysarthria, written speech, dysgraphia, dyslexia, articulatory apparatus, speech motor skills, phonemic hearing, phonemic perception, speech breathing, graphomotor skills, speech therapy, multimodal approach, sensory integration, speech disorders, special education, neuropsychology, articulatory exercises.

Bolaning dunyoga kelishidan tortib to balogʻatga yetgunicha oʻsishi — uning jamiyat aʼzosi sifatida shakllanishi, shaxs sifatida kamol topishi jarayonidir. Ushbu jarayonda maktab eng asosiy va muhim oʻrinlardan birini egallaydi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Zero, maktabda bola keyingi hayoti uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar zaxirasini toʻplab, jamiyatning toʻlaqonli aʼzosi sifatida shakllanishi sari qadam qoʻyadi. Darhaqiqat, bilim choʻqqilarini egallagan, jamiyatda oʻz oʻrnini topishga qodir inson Vatani, oʻz yurtdoshlari uchun ijobiy namunadir. Aynan ana shu natijalar boshlangʻich sinfda koʻzda tutilib, butun taʼlim-tarbiya tizimiga oʻziga xos maʼnaviy-axloqiy sayqal berib turadi. Toʻgʻri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, bola uchun tovushlar va soʻzlarni aniq va toʻgʻri talaffuz eta olish imlo qoidalarini oʻzlashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu bola nutqining toʻgʻriligi va sofligining savodxonlik koʻnikmalari (oʻqish va yozish)ni oʻzlashtirishdagi muhim aloqasi bilan belgilanadi. Bolaning ogʻzaki nutqidagi kamchiliklar oʻz-oʻzidan yozma kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalarda kuzatiladigan nutq buzilishlaridan biri — bu dizartriya.

Adabiyotlar tahlili

Dizartriya va u bilan bogʻliq yozma nutq buzilishlari muammosi logopediya, neyropsixologiya hamda maxsus pedagogika sohalarida keng oʻrganilgan boʻlib, turli olimlar tomonidan ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan.

Avvalo, M.Yu. Ayupova oʻzining “Logopediya” asarida nutq buzilishlarining umumiy tasnifini berar ekan, dizartriya markaziy asab tizimi zararlanishi bilan bogʻliq murakkab nutq nuqsoni sifatida taʼriflaydi. Muallif nutqning artikulyatsion, fonatsion va prosodik komponentlari buzilishi yozma nutq shakllanishiga bevosita taʼsir koʻrsatishini taʼkidlaydi [1, 112–118-betlar]. Ushbu yondashuv dizartriya bolalarda disgrafiya va disleksiya elementlarining paydo boʻlishini ilmiy asoslashga imkon beradi.

E.F. Arxipova dizartriya korreksion ishlarning asosiy yoʻnalishlarini yoritib, artikulyatsion gimnastika va nutq motorikasini rivojlantirish mashqlarining ahamiyatini alohida koʻrsatadi. Uning fikricha, nutq apparati mushak tonusini normalashtirish fonematik idrokning shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi [3, 54–60-betlar]. Bu esa yozma nutqni oʻzlashtirish jarayonida tovush-harf munosabatlarini toʻgʻri shakllantirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

A.N. Kornev esa disleksiya va disgrafiya muammolarini neyropsixologik nuqtai nazardan oʻrganib, yozma nutq buzilishlarining asosida fonematik tahlil va sintez jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi yotishini taʼkidlaydi. Muallifning fikricha, ayniqsa artikulyatsion jihatdan yaqin tovushlarni farqlashdagi qiyinchiliklar yozuv jarayonida xatolar sonining oshishiga olib keladi [5, 73–79-betlar].

O.G. Prikhodko dizartriya bolalar bilan olib boriladigan logopedik massaj va kompleks korreksion ishlar samaradorligini oʻrganar ekan, nutqiy nafas va artikulyatsion apparat faoliyatini yaxshilash yozma nutqni rivojlantirishda muhim rol oʻynashini taʼkidlaydi. Uning tadqiqotlarida erta bosqichdagi korreksion ishlar natijasida grafomotor koʻnikmalar sezilarli darajada yaxshilanishi isbotlangan [6, 41–46-betlar].

A.V. Semenovich tomonidan ishlab chiqilgan neyropsixologik korreksiya tizimi esa dizartriya bolalarda kognitiv jarayonlar — diqqat, xotira va fazoviy idrokni rivojlantirish orqali yozma nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Muallif multimodal yondashuvni qoʻllash samaradorligini alohida taʼkidlaydi [7, 88–95-betlar].

Shuningdek, L.I. Belikova tomonidan tavsiya etilgan artikulyatsion gimnastika mashqlari dizartriya nutq apparati harakatchanligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Ushbu mashqlar fonematik eshituvni rivojlantirish bilan birgalikda qoʻllanganda yozma nutqdagi xatolarni kamaytirishga yordam beradi [4, 33–37-betlar].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, dizartriya bolalarda yozma nutq

buzilishlari murakkab tuzilishga ega bo'lib, u faqat artikulyatsion nuqsonlar bilan emas, balki fonematik idrok, kognitiv jarayonlar va grafomotor rivojlanishning yetarli emasligi bilan ham bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda kompleks, multimodal va neyropsixologik yondashuvlar ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Aynan shu jihatlar dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini bartaraf etishning samarali logopedik tizimini ishlab chiqishda ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini o'rganish uchun nazariy va amaliy metodlar qo'llanildi. Nazariy bosqichda logopediya, neyropsixologiya va maxsus pedagogika bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Amaliy bosqichda esa kuzatuv, logopedik diagnostika va pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi. Bolalarning fonematik idroki, artikulyatsion motorikasi va grafomotor ko'nikmalari maxsus topshiriqlar orqali baholandi. Korreksion ish jarayonida artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish, nutqiy nafas mashqlari va grafomotor mashqlar tizimi qo'llanildi. Natijalar oldingi va keyingi holatni qiyoslash orqali tahlil qilindi.

Natijalar. Dizartriya nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi natijasida yuzaga kelib, artikulyatsiya, fonatsiya, nutqiy nafas va umumiy nutq motorikasining buzilishi bilan xarakterlanadi. Dizartriya bolalarning nutqiy tajribasi cheklangan, til vositalari takomillashmagan bo'ladi. Nutqiy muloqotga ehtiyoj yetarlicha qondirilmaydi. So'zlashuv nutqi qashshoq, kam so'zli, ma'lum vaziyat bilan uzviy bog'liq va shu vaziyatdan tashqarida tushunarsiz bo'lib qoladi.

Ushbu buzilishlar tizimli xususiyatga ega bo'lib, bolaning nutq faoliyatining barcha komponentlariga, xususan, fonematik idrok, leksik-grammatik tizim va yozma nutq ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini erta aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali logopedik usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda faqatgina tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish yetarli bo'lmay, balki nutq faoliyatining barcha komponentlarini kompleks rivojlantirish talab etiladi. Xususan, artikulyatsion motorikani faollashtirish, nutqiy nafasni to'g'ri shakllantirish, fonematik idrokni rivojlantirish, grafomotor ko'nikmalarni mustahkamlash hamda yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish muhim vazifalar qatoriga kiradi. Shuningdek, zamonaviy logopedik amaliyotda multimodal yondashuv, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta analizatorlarni (eshitish, ko'rish va kinestetik) jalb etgan holda o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlar va sensor integratsiya mashqlari keng qo'llanilmoqda. Bu esa dizartriya bolalarda yozma nutqni rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini o'rganish va ularni bartaraf etish logopediya va maxsus pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki bu toifadagi bolalarda nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi tufayli nafaqat og'zaki nutq, balki yozma nutq shakllanish jarayoni ham sezilarli darajada buzilgan bo'ladi. Dizartriya artikulyatsiya a'zolarining yetarli darajada harakatlanmasligi, mushak tonusining o'zgarishi, spastiklik yoki gipotoniklik holatlari, shuningdek, nutqiy nafas va ovoz hosil qilish jarayonidagi nuqsonlar tovushlarning to'g'ri talaffuz qilinmasligiga olib keladi, bu esa o'z navbatida fonematik idrokning buzilishiga sabab bo'ladi.

Dizartriya bolalarda yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha logopedik ish yo'nalishlari

| № | Logopedik yo'nalish | Mazmuni | Kutiladigan natija |
|---|------------------------------------|--|---|
| 1 | Artikulyatsion gimnastika | Til, lab va yumshoq tanglay mushaklarini faollashtiruvchi mashqlar | Tovushlarni aniq talaffuz qilishni yaxshilash |
| 2 | Fonematik eshituvni rivojlantirish | Tovushlarni farqlash, minimal juftliklar bilan ishlash | Tovush-harf munosabatini to'g'ri shakllantirish |
| 3 | Nutqiy nafas mashqlari | Diafragmal nafasni shakllantirish mashqlari | Tovushning barqaror va aniq chiqishi |
| 4 | Grafomotor mashqlar | Chizish, nuqtalarni birlashtirish, kontur bo'ylab yozish | Yozuv aniqligi va qo'l harakati koordinatsiyasi |
| 5 | Yozma nutqni shakllantirish | Bo'g'in, so'z va diktant mashqlari | Disgrafiya xatolarini kamaytirish |
| 6 | Multimodal yondashuv | Eshitish, ko'rish va harakat analizatorlarini birgalikda qo'llash | Tez va mustahkam o'zlashtirish |

Jadvalda dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan asosiy

logopedik yoʻnalishlar tizimli ravishda aks ettirilgan. Unda artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish, nutqiy nafasni shakllantirish, grafomotor koʻnikmalarni mustahkamlash hamda yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish kabi korreksion ish turlari yoritilgan.

Har bir yoʻnalishning mazmuni va kutiladigan natijasi alohida koʻrsatilib, ularning dizartriya bolalarda nutq tizimini kompleks rivojlantirishdagi oʻrni ochib berilgan. Xususan, ushbu mashgʻulotlar tovush-harf munosabatlarini mustahkamlash, fonematik idrokni rivojlantirish hamda grafomotor koʻnikmalarni shakllantirish orqali yozma nutqdagi xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, jadvalda multimodal yondashuvning ahamiyati ham taʼkidlangan boʻlib, u eshitish, koʻrish va kinestetik analizatorlarni birgalikda faollashtirish orqali korreksion jarayon samaradorligini oshiradi.

Fonematik idrokning yetarli rivojlanmaganligi esa yozma nutqda tovush-harf munosabatlarining notoʻgʻri shakllanishiga olib kelib, bolalarda disleksiya va disgrafiya belgilarini yuzaga keltiradi, natijada ular soʻzlarni notoʻgʻri yozadi, harflarni tushirib qoldiradi yoki ortiqcha qoʻshib yozadi, tovushlarni bir-biri bilan almashtiradi, ayniqsa artikulyatsion jihatdan oʻxshash tovushlarda koʻproq xatolarga yoʻl qoʻyadi, masalan, “s” va “sh”, “b” va “p”, “d” va “t” kabi tovushlar oʻrtasidagi farqni toʻliq anglamaslik kuzatiladi. Dizartriya bolalarda yozuv jarayoni sekinlashgan boʻladi, grafomotor koʻnikmalar yetarli darajada shakllanmaganligi sababli harflarni yozishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, qoʻl harakatlari noaniq va muvofiqlashtirilmagan boʻladi, bu esa yozma nutq sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, shuningdek, bunday bolalarda diqqatning beqarorligi, xotira jarayonlarining sustligi va umumiy psixik rivojlanishdagi ayrim kechikishlar ham kuzatilishi mumkin boʻlib, bu holatlar yozma nutqni oʻzlashtirishni yanada murakkablashtiradi.

Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini bartaraf etishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etib, bunda logopedik ish bir necha yoʻnalishda olib borilishi zarur hisoblanadi.

Muhokama

Nutq apparati motorikasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi va mushaklarning faoliyatini yaxshilash orqali tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishga erishiladi va bu fonematik idrokni rivojlantirishga zamin yaratadi. Nutq apparati harakatchanligini rivojlantirishga oid mashqlar tizimli ravishda, bosqichma-bosqich murakkablashtirib borilgan holda tashkil etilishi lozim. Tilni yuqoriga koʻtarish, yon tomonlarga harakatlantirish, lablarni choʻzish va yigʻish, yumshoq tanglayni faollashtirishga qaratilgan mashqlar keng qoʻllaniladi, artikulyatsion gimnastika bilan bir qatorda nutqning ritmi va ifodaliligini taʼminlashga oid nutqiy nafasni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan turli mashqlar tavsiya etiladi.

Toʻgʻri tashkil etilgan nafas mashqlari orqali bolalarda diafragmal nafas shakllantiriladi, natijada tovushlar aniqroq talaffuz qilinadi va yozma nutqda ham xatolar kamayadi. Logopedik ishning yana bir muhim yoʻnalishlaridan biri fonematik eshituvni rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu jarayonda dizartriya bolalar tovushlarni eshitish orqali farqlash, ularni tahlil qilish va toʻgʻri idrok etishga oʻrgatiladi. Fonematik mashqlar orqali tovushlarning akustik va artikulyatsion xususiyatlari oʻrgatiladi, minimal juftliklar bilan ishlash, eshitish diktantlari, tovushlarni aniqlashga doir oʻyinlar bu jarayonda samarali yordam beradi.

Dizartriya bolalarda fonematik idrok rivojlantirilgach, yozma nutqni shakllantirishga oid ishlar amalga oshiriladi. Dizartriya bolalarga avvalo tovush-harf mosligi tushuntiriladi, keyin esa boʻgʻinlab yozish, soʻzlarni koʻchirish, diktant yozish kabi mashqlar bajariladi. Grafomotor koʻnikmalarni rivojlantirish ham alohida eʼtibor talab qiladi, bunda qoʻl barmoqlari harakatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, chizish, boʻyash, kontur boʻylab harakatlanish, nuqtalarni birlashtirish kabi faoliyat turlari qoʻllaniladi. Ushbu mashqlar qoʻl mushaklarini mustahkamlaydi va yozuv jarayonini osonlashtiradi, shuningdek, koʻrish va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish orqali bolalarda yozuv aniqligi oshadi.

Dizartriya bolalarda yozma nutqni rivojlantirish jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki har bir bolaning nuqson darajasi va xususiyatlari turlicha boʻladi, shu sababli logoped har bir bola uchun alohida korreksion dastur ishlab chiqishi lozim. Logopedik ishning ushbu bosqichida bolaning yosh xususiyatlari, psixologik holati, nutq rivojlanish darajasi hisobga olinadi.

Zamonaviy logopediyada multimodal yondashuv keng qoʻllanilib, bir vaqtning oʻzida bir necha analizatorlar — eshitish, koʻrish va kinestetik analizatorlar jalb qilinadi, bu esa mashgʻulotlarning samaradorligini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham dizartriya bolalarda yozma nutqni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini bartaraf etish uzoq muddatli va tizimli ishni talab qiladi, ammo toʻgʻri tashkil etilgan logopedik yondashuv orqali bu bolalarning yozma nutqini sezilarli darajada yaxshilash, ularni taʼlim jarayoniga muvaffaqiyatli

moslashtirish va ijtimoiylashuv darajasini oshirish mumkin bo‘ladi, shu sababli ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy metodlarni takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Dizartriya bolalarda yozma nutqni rivojlantirishda logoped, psixolog va nevrolog hamkorligi, shuningdek, ota-onalarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini bartaraf etish tizimli, izchil va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. To‘g‘ri tashkil etilgan korreksion ishlar natijasida bolalarning yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning o‘quv faoliyatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga yordam beradi. Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini bartaraf etish uzoq muddatli, izchil va sabr-toqat talab qiladigan jarayon bo‘lib, unda tizimli ravishda olib borilgan logopedik mashg‘ulotlar, individual yondashuv, zamonaviy metodlardan foydalanish va mutaxassislar hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning kelajakdagi ta‘lim va kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun mustahkam asos yaratadi, shu bois dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini o‘rganish, ularni erta aniqlash va samarali logopedik usullarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlari murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u nafaqat artikulyatsion apparat faoliyati buzilishi, balki fonematik idrok, grafomotor ko‘nikmalar va kognitiv jarayonlarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan ham bog‘liqdir. Shu sababli yozma nutqdagi disgrafiya va disleksiya elementlarini bartaraf etish kompleks logopedik yondashuvni talab etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, artikulyatsion gimnastika, fonematik eshituvni rivojlantirish, nutqiy nafas mashqlari hamda grafomotor mashqlar tizimli ravishda qo‘llanganda dizartriya bolalarda yozma nutq ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Multimodal yondashuv esa o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirib, materialni tez va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, individual yondashuv va korreksion ishlarning bosqichma-bosqich tashkil etilishi har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda samarali natijaga erishishni ta‘minlaydi. Logoped, psixolog, nevrolog va ota-onalarning hamkorligi esa korreksion jarayonning muvaffaqiyatli kechishida muhim omil hisoblanadi. Dizartriya bolalarda yozma nutq buzilishlarini erta aniqlash va ilmiy asoslangan logopedik usullarni qo‘llash ularning ta‘lim jarayoniga moslashuvi hamda ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аюпова М. Ю. Логопедия. – Т.: Издательство Общества философов Узбекистана, 2017.
2. Axmedova Z. M. Logopediya (yozma nutq buzilishlari). – Toshkent: TUBO nashr, 2025.
3. Архипова Е. Ф. Коррекционная работа при дизартрии. – М.: АСТ, 2006.
4. Беликова Л. И. Артикуляционная гимнастика. – М.: Феникс, 2015.
5. Корнев А. Н. Дислексия и дисграфия у детей. – СПб.: Речь, 2003.
6. Приходько О. Г. Логопедический массаж при коррекции дизартрических нарушений речи у детей раннего и дошкольного возраста. – СПб.: КАРО, 2008.
7. Семенович А. В. Нейропсихологическая коррекция в детском возрасте. – М.: Академия, 2007.